

O'TKIR HOSHIMOVNING „DUNYONING ISHLARI” VA ULUG’BEK HAMDAMNING „OTA” ASARLARI BO’YICHA QIYOSIY TAHLIL

Baratova Mohiniso

Navoiy davlat pedagogika instituti O’zbek tili va adabiyoti fakulteti

“O’zbek tili va adabiyoti” yo’nalishi 204-guruh talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” va Ulug’bek Hamdamning “Ota” asarlari qiyosiy tahlil qilingan. Jamiatda ota va onaga bo’lgan munosabat yoritilgan. Asarlarning bir-biri bilan uzviy bog’liqligi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: adabiyot, roman, qissa,qiyosiy tahlil, ota va ona.

*Balki o’z joyida emas yulduzlar ,
Sayyoralar tinmay aylanar sokin .
Otam va onamning mehridan boshqa
Har neni qaytadan topishim mumkin.*

Xalq orasida “Shahar tojini izlama,ota-onang roziliginiz izla!”-degan jumlalar ko’p bora qulog’ingizga chalinib turadi. Odatda otani “Padari buzrukvor”, onani esa „Mehribon volida” deb ataysiz. Chunki har bir inson uchun otadan ulug’, qadrdon, onaday mehri daryo zot bo’lmaydi. Ota-onangiz sizni katta umidlar bilan dunyoga keltiradi, yetuk va barkomol bo’lib yetishib chiqishingiz uchun bor kuchini sarf qiladi. Ular sizni ko’z qorachig’idek avaylab, hayotingizni quyosh yanglig’ yoritib turadi. Ota-onaningizning sof muhabbatini nafaqat hayotda, balki badiiy asarlarda o’qib chiqish orqali yana bir bor his qilasiz.Siz ota yoki onaga bag’ishlangan asarlarni bugunga qadar o’qigansiz, o’rganib, mushohada qilishga ham ulgurgansiz. Bu mavzudagi asarlarga XX asr adabiyotida, baki modernizm adabiyotida ham ko’plab duch kelasiz. Insonlarning ota-onaga,hayotga bo’lgan qiziqishlariga, dunyoqarashlariga ijobjiy ta’sir qiladigan asosiy kuch badiiy asarlar hisoblanadi. “Adabiy asarlar turmushni jonli ko’rsatib, odamlarning fikr va tuyg’ulariga kuchli ta’sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr – his jihatidan to’la adabiy asarlar o’quvchini uzoq vaqt bog’lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni abstrakt (mavhum) tushuntirmay, konkret (aniq) badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi. Adabiy asarlar ila ma’lum bir yo’nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko’rsatish mumkin. Davrni to’lqinlantirgan ulug’ ideyalar, vazifalar, millionlarning hayotida ko’rilgan o’zgarishlar san’at asarlarida tajassumlanishi kerak. Adabiyot xalqning jon-tani bo’lgan bir ishdir, shuning uchun bizning bu sohadagi har bir muvaffaqiyatimizni, maydonga chiqqan har bir qimmatli asarni xalq o’z g’alabasi, deb biladi “-deya O’zbekiston xalq yozuvchisi Oybek ushbu jumlalarni keltirib o’tgan. Darhaqiqat,

adabiyot insonlarning his – tuyg’ularini ochib beradigan, orzu armonlarini o’zida aks ettiradigan badiiy so’z qudratidir. Badiiy asarlarni barcha sevib mutolaa qiladi. Qay davrda yaratilgan asar bo’lishidan qat’iy nazar o’z badiiy qiymatini yo’qotmagan.

O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari“ va Ulug’bek Hamdamning “Ota” asarlari adabiyot haqidagi fikrlarimizning yaqqol namunasidir. “Ota“ asariga to’xtaladigan bo’lsa, bu asar XXI asr boshida yaratilgan, hajman katta bo’lmagan, ammo mazmuni keng qamrovli bo’lgan romandir. Asar butun dunyo otalariga bag’ishlangan. Bugungi kungacha yaratilgan boshqa asarlarda ham ota obrazi ko’p bora keltirib o’tilgan. Ushbu asarda jonkuyar, mehribon, farzandiga bo’lgan mehri bir olam bo’lgan ota timsoli ko’rsatib o’tiladi. Shu paytgacha Ulug’bek Hamdamning ko’p asarlari o’qib o’raganilgan. „Ota“ asari o’qilgach kitobxonda juda ko’p savollar tug’iladi. “Nega?“, “Nima uchun?“, “Qanday qilib?“ – degan jumlalar hech tark etmay qo’yadi. Uzoq yillardan so’ng farzandli bo’lgan oilaning quvonchini, ularning sevinchini cheki yo’q edi. Ota o’z qizini hech kimga ishonmasdan katta qiladi. Ammo yoshlikdagi baxtsiz hodisa tufayli mudhish voqeа sodir bo’ladi. Bu esa butun umr qiziga va Po’lat otaga og’ir musibatlarni qoldiradi. „Axir men otaman, ota! Bu dunyo otalar qo’lida edi- ku yoki men tufayli chiqib ketdimi? Yo’q, yo’q, bunga yo’l qo’yib bo’lmaydi. Aslo! Kerak paytda otalar qattiq turmas ekan, dunyo ham o’z o’rnida turmaydi: Buziladi ketadi“. ¹ Inson butunlay baxtsiz bo’la olmaydi. Ammo butunlay baxtli ham bo’la olmaydi. Zero baxt ham baxtsizlik ham yemirilishga mahkum. Kitobxonlar asarni o’qib bo’lgach o’z o’y - fikrlaridan kelib chiqib tahlil qiladi. Kimga qanday ta’sir qilishi kitobxonning aql-u zakovatiga bog’liq. Modernizm adabiyotida asardan xulosa chiqarish, unga qanday baho berish kitobxонni o’ziga bog’liq. Asar o’zining murakkab jarayonlari bilan kitobxонni qiziqtirib, o’ziga rom qilib oladi. Chunki badiiy asar shunisi bilan qiziqdir. Asarning ma’nan yaqin davomi O’tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari“ asari hisoblanadi. Insonning hayotida ikki tirkagi bo’ladi. Biri ota bo’lsa biri onadir. “Dunyoning ishlari“ asari barchaga ma’lum va mashhurdir. Asar kitobxonlarning ko’nglidan munosaib joy olgan. Ushbu asar barcha onalarga bag’ishlangan. Kitobda yozuvchining quyidagi so’zlari keltirilgan: „Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sochib turadigan sehrli kuch bor. Bu – Ona mehri! Alloh onani shunday yaratgan!“ Yozuvchi o’z onasini qanday bo’lsa shundayligicha asarga olib kiradi. Asardagi boshqa obrazlar ham ayni adibning o’z hayotidan olingan. Asarni o’qish jarayonida yozuvchining hayot yo’li, voyaga yetgan muhiti, orzu – umidlari haqida bilib olish mumkin. Bu asar o’tgan asrning 80-yillarida yaratilgan. Ammo bugungi kungacha asar o’zining mazmun-mohiyatini yo’qotmagan. Asar butun dunyo onalariga bag’ishlab yozilgan madhiyadir. Qissa haqida O’zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday degan edi:

¹ Ulug’bek Hamdam „Ota“ . „Yangi asr avlod“ , 2020-yil , 157-bet .

„Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo’shiqday o’qiladi. Uni o’qib turib o’z, onalarimizni o’ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo’lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko’z oldimizda ko’ndalang turib oladi. Asar bizni insogfa, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi“.²

Asarda “Xiyonat” hikoyasidan keltirilgan jumlalar: “Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga! Biron marta, aqalli bir marta xiyonat qildimi? Har kim har kimning ko’ziga cho’p solishi mumkin, har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o’z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir“.³ “Dunyoning ishlari” asarida shunday ta’sirli jumlalar borki, har bir kitobxонни yuragini larzaga soladi. Kitobxon asardagi hikoylarni o’qish jarayonida, albatta, o’z onasining siyosiga duch keladi. Axir onalarni kim sevmaydi deysiz? Millat boshqa boshqadir, lekin onaga bo’lgan sof, samimi, beg’ubor muhabbat na millat, na irqni tanlamaydi.

Buni “Alla” hikoyasida ham kurishingiz mumkin. Bu asarlar qiyosiy tahlil qilinadigan bo’lsa, avvalo, ikkala asar ham ikki davr oralig’ida yaratilgan. Bir – birini mazmunan boyitib, to’ldirib turadi. Biri jannat kaliti bo’lmish mushtipar ona haqida bo’lsa, birisi hayotimiz mazmuni bo’lgan ota haqida. Ota mavzusi yoritilgan asarlar nafaqat modernizm adabiyotida, balki chet el adabiyotida ham ko’p uchraydi. Masalan, Robert Kiyosakining “Boy ota va kambag’al ota”, Ivan Tugenov “Otalar va bolalar”, Onore de Balzakning „Gorio ota“ asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Xuddi shunday ona obrazi tasvirlangan Ahmad Lutfi Qozonchining “O’gay ona”, Murot Tosunning “Olim yetishtirgan onalar” asarlari yaratilgan. Ota yoki onaga ta’rif berilayotganda ularning jamiyat hayotidagi o’rni beqiyos ekanligiga guvoh bo’lamiz. “Ota” asarida otaga e’tibor qaratiladigan bo’lsa, bunda ota o’z qarashlaridan kelib chiqqan holda qiziga shu chorani qo’lladi. Ya’ni nega qizi otasiga bor haqiqatni so’zlab bermadi? Nega otasi qizidan nima uchun bu ishni qilding deb so’ramadi? Bu savollarga javob topish va vaziyatni qabul qilish og’ir. Modernizm adabiyoti shunisi bilan kitobxонни ko’nglidan joy oladi. “Dunyoning ishlari” asarida yozuvchi onani mukammal tarzda tasvirlaydi. Kitobxonni asar ichiga krita oladi. O’quvchini o’ylashga, mushohada qilishga undaydi. Asarni o’qish jarayonida onalarni ikki karra ko’proq yaxshi ko’rib qolishlari tabiiy. Bu mavzuga bag’ishlangan mukammal asarlar ko’plab yaratilmoqda. Insonlar hayotida adabiyotning o’rni beqiyos. „Adabiyot so’zni tuzukkina onglamoq uchun, san’at ham go’zal san’at degan so’zlarni ta’rif qilib o’tish lozimdir. San’at lug’atda hunar demakdirkim: bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir ...Bu ma’nodagi „san’at“ dan tilakda boshqacha

² <https://kh-davron.uz/multimedia>.

³ O’tkir Hoshimov, „Dunyoning ishlari” ., Yangi asr avlodи, 2015-yil, 34-bet

bo'lgan bir turli san'atlar bor ".⁴ Asarlarni bir – biri solishtirish, tahlil qilish, qiyoslash kitobxon ongi va aqliy faolayatiga yaxshi ta'sir qiladi. "Qachonki, bo'lajak kitobxon badiiy asarlarni tahlil etishi yo'l-yo'rig'ini fan darajasida o'rganmas va har qanday janrdagi estetik yaratiqni tahlil qila olish malakasiga ega bo'lmas ekan, adabiyy ta'lidan kuzatilgan asl maqsadga to'liq erishilishi mumkin emas. Adabiyot o'qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha , asardan chiqarilgan xulosa "ijtimoiy nasixat "ligicha qolaveradi".⁵ Shuning uchun yaratilayotgan barcha asarlar mavzu, badiylik, mushohadalik, dolzarbliji jihatdan mukammal bo'lishi kerak. Bunday asarlar hech qachon kitobxon nazaridan chetda qolmaydi. Chingiz Aytmatov shunday degan edi:,,Hozirgi dunyoda adabiyot murakkab sharoitga tushib qolgan. Favqulodda u keraksiz buyumga aylangandek, zero, qiziqishlar ham, his-hayajonlar ham oldingiday emas, bo'lakcha. Burungi kitobxonlarimizning o'y-xayollari endi boshqa narsalar bilan band. „Bugungi kitobxonlar esa asl mutolaaning zavq-shavqidan, aftidan, bexabar. Shundan kelib chiqib endi nima qilish lozimligini birgalashib o'ylab ko'rishimiz kerak".⁶ Badiiy asar katta ta'sir kuchiga ega. Faqat undan mohirona va ustalik bilan foydalana olsa bas. Ma'naviyatning ko'zgusi bo'lgan bu asarlarni o'qish va o'rganishdan o'quvchilar aslo charchashmaydi. Shu mazmundagi asarlar yaratilishini barcha kitobxonlar kutib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug'bek Hamdam "Ota".
2. <https://kh-davron.uz/multimedia>.
3. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari"
4. Abdurauf Fitrat "Tanlangan asarlar"
5. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. T.

⁴ Abdurauf Fitrat . Tanlangan asarlar . IV jild . T . : „ Ma'naviyat " 2006 . 11-bet .

⁵ Qozoqboy Yo'ldosh , Muhayyo Yo'ldosh . T . : 2016 . 5-bet .

⁶<https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha-adabiyot-haqida.html>